

TILSHUNOSLIKDA “SLENG” TUSHUNCHASI VA UNGA YONDOSH HODISALAR

Bekmuradova Iroda Zokir qizi

irodabekmuradova9@gmail.com

ToshDO‘TAU magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilshunosligida sleng tushunchasini ajratish tamoyillari, tildagi slenglarga o‘xshash va yondosh leksik hodisalar haqida ma’lumot berilgan. Slenglarning ko‘chma ma’noda qo‘llangan so‘zlardan farqi misollar vositasida tushuntirib berilgan. Slenglarni ajratish omillari sanab o‘tilgan va izohlangan.

Abstract. This article provides information on the principles of distinguishing the concept of slang in Uzbek linguistics, similar and related lexical phenomena to slang in the language. The difference between slang and figurative words is explained by means of examples. Factors that distinguish slang are listed and explained.

Аннотация. В данной статье представлена информация о принципах разграничения понятия сленг в узбекском языкознании, сходных и родственных сленгу лексических явлений в языке. Разница между жаргонными и переносными словами объясняется на примерах. Перечислены и объяснены факторы, отличающие сленг.

Kalit so‘zlar: *sleng, o‘xshatish, ko‘chma ma’no, metafora, metonimiya, sinekdoxa.*

Sotsiolingvistik birliklar ichida ko‘p qo‘llanadigan noadabiy leksik qatlamga oid birliklar doimiy o‘rganishga muhtoj. Yozma nutqda kamdan-kam ishlatilsa ham, og‘zaki so‘zlashuvda faol bo‘lgan jargon, argo va slenglar zamonaviy tilga xos so‘zlar hisoblanadi. Ularning barcha keng aholi uchun birday tushunarli bo‘lolmaydi, chunki, bunday birliklar ko‘p hollarda qisqalik, aytilmoqchi bo‘lgan fikrni boshqalardan yashirish maqsadida ishlatiladi. Zamonaviy so‘zlashuv uslubida tilimizga mansub slenglar ham, o‘zga tillardan o‘zlashgan slenglar ham uchraydi. O‘zbek tilshunosligida slenglar tadqiqotlari hali yetarli darajada amalga oshirilmaganligi sababli, bunday so‘zlar mavzuga doir keng sotsial tadqiqotlar, slenglar lug‘atini yaratish kabilar yangi ilmiy izlanishlarga muhtoj. Ushbu vazifani bajarish uchun slenglar va ularga yondosh boshqa ijtimoiy lug‘aviy birliklar va leksik hodisalarning chegaralarini belgilash hamda ularning xususiyatlarini aniqlash zarur.

Sleng – G‘arb tilshunosligi an‘analariga xos termin sanaladi. Mazkur terminga haligacha aniq ta’rif berilmagan. Turli lug‘atlarda va sotsiolingvistikaga oid adabiyotlarda uning “jargon” terminiga yaqin turishi qayd qilingan. Sleng so‘zi ilk bor yozma ravishda XVIII asrda Angliyada “haqorat” ma’nosini anglatuvchi so‘z



sifatida qo'llangan. Keyinchalik sleng “noqonuniy” oddiy leksika ma'nosini bildiruvchi so'z sifatida keng qo'llanila boshladi. Ayni paytda uning jamiyatning quyi tabaqalari qo'llaydigan slang-lingo va “rang-barang” aholi foydalanadigan argot singari sinonimlari ham paydo bo'ldi

Slengga xos eng umumiy ta'rif – bu muayyan kasb egalari yoki ijtimoiy guruhlarning og'zaki nutqida qo'llaniladigan, emotsional-ekspressiv bo'yoqqa ega bo'lgan so'z va iboralar. Rus tilshunosligida bunday xususiyatga ega bo'lgan birliklarning faqat yoshlar nutqiga xos bo'lganlarigina sleng sifatida olinadi. Ingliz tilshunosligida esa slengning qamrovi biroz kengroq. U jargon so'zi bilan sinonim sifatida yoshi va kasbidan qat'iy nazar har qanday ijtimoiy guruhlar uchun xos bo'lgan “kodlangan leksika”ni bildiradi. O'zbek tilshunosligidagi sotsiolingvistik tadqiqotlarda rus tilshunosligidagi qarashga ergashish holati kuzatiladi. Ya'ni slenglar ko'proq yoshlarning nutqida uchraydigan o'ziga xos yashirin ma'noga ega bo'lgan leksik birliklar sifatida e'tirof etiladi. Masalan, *shkaf* – barvasta, gavgali, norg'ul. Ba'zan beso'naqay qomatga ega odamlarga nisbatan. *Sigir* – qizlarga ko'p pul sarflaydigan yigitlar. *G'ijim* – o'ziga qaramaydigan, o'ziga bee'tibor odamlarga nisbatan va shu kabilar. Turshak – o'ziga qaramaydigan, o'ziga bee'tibor odam.

Sleng – jonli, harakatdagi til shakli bo'lib, u mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o'zgarishdan ta'sirlanadi. Sleng qo'llanish doirasiga ko'ra: hammaga ma'lum va barcha tomonidan qo'llanuvchi umumiy sleng (general slang) va muayyan guruhlarga ma'lum bo'lgan, tor doirada qo'llanuvchi xususiy sleng (special slang)ga ajraladi. Shuningdek, slengizmlar ko'pincha chet tillardan, ularning dialektlaridan va jargonlaridan o'zlashtirilgan bo'ladi. Masalan, “tusovka”, “telejka”, “tachka”, “stukach” rus tilidan, “yuzer” (user), “chat” (chat), ingliz tilidan o'zlashtirilgan.

Slenglarning (ayniqsa, ularning dastlabki shakllanishi davrida) keng ommaga tushunarsiz bo'ladi. Chunki aksariyat slenglar ko'chma ma'noda ishlatiladi. Shunga ko'ra ular tildagi boshqa leksik hodisalar: metafora, o'xshatish, sinekdoxa kabi hodisalarga o'xshab ketadi. Ammo shunday bo'lsa ham mazkur hodisalar bir-biridan farqli holatda qarashni talab etadigan ayrim xususiyatlarga ega.

So'zlashuv jarayonida so'zlovchi ifodalayotgan fikrini til birliklari vositasida ta'sirchan ifodalash, tasvirning o'ziga xos individual xususiyatlarini ochish uchun so'zlarni o'z ma'nosidan tashqari ko'chma ma'nolarda ham qo'llaydi. Bunda so'zlar o'z lingvistik vazifasi bilan bir qatorda qo'shimcha ma'nolarni ham ifodalaydi. So'zlarning bunday ma'nolarda qo'llanishi nutqqa obrazlilik, ekspressiv bo'yoq beradi, ifodani erkin va to'laqonli ochib berib, tinglovchining estetik zavq olishini ta'minlaydi. Metafora ana shunday hodisadir.

Metafora narsa va hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikka asoslangan holda so'z ma'nosining ko'chishi hodisasini ifodalaydi. Metafora fikrni obrazli ifodalash vositasi sifatida og'zaki va yozma nutqda ham, badiiy, publitsistik uslublar bilan bir qatorda oddiy so'zlashuv uslubida ham keng qo'llaniladi. Biroq oddiy so'zlashuvda uslubida qo'llangan metaforalar badiiy metaforalardan farqlanadi. Chunki,



tilshunoslikda metafora hodisasining yuzaga kelish omillari, nutqning u yoki bu ko‘rinishida namoyon bo‘lishi jihatidan lingvistik va badiiy metaforalarga ajratiladi. B.Umurqulovning fikricha, “Til metaforasi badiiy metaforadan o‘xshashlikning formasiga ko‘ra farqlanadi: til metaforasi ikki predmet orasidagi bevosita yoki ochiq o‘xshashlikka asoslangan ko‘chim bo‘lsa, badiiy metaforada predmetlar orasidagi o‘xshashlik asosida badiiy bo‘yoq, obrazlilik yotadi. Demak, badiiy metafora til metaforasidan, dastlab, fikrni ifodalashi bilan ajralib turadi. Badiiy metaforada o‘xshashlik yashiringan bo‘ladi” [Begmatov, Boboyeva, Asomiddinova, Umurqulov, 1988: 80]

Fikrni ifodalashda ma‘no ko‘chish hodisalaridan foydalanishning asosiy vazifasi gapga obrazlilik bag‘ishlash bilan bir qatorda so‘zlovchi tomonidan tasvirlanayotgan obrazning barcha qirralarini tinglovchi tasavvurida aniq gavdalanirish, fikrning qisqa va aniqligini ta‘minlashdan iboratdir. Masalan: *Beodob qizning gapini onasi tekislab turdi*. Ushbu gapda onaning qizining gaplarini to‘g‘rilashga bo‘lgan urinishi biror narsani tekislashga o‘xshatilgan hamda tekislamoq so‘zi bilan ifodalangan metaforani yuzaga keltirgan. Yoki: *Bu voqea yanvarning oyoqlarida ro‘y bergan edi*. Gapdagi oyoq so‘zi organizmning eng pastida, eng oxirida joylashganlik xususiyati bilan oyning so‘ngi ma‘nosini bildirib kelgan.

Bir narsa, belgi, harakatning nomi boshqasiga o‘xshashlik asosida emas, balki o‘zaro bog‘liqlik, aloqadorlik asosida ko‘chirilishiga metonimiya usulida ko‘chirilish deyiladi. Masalan: *Butun qishloq uni olqishladi*. Bu gapdagi qishloq so‘zi joy, manzil ma‘nosida emas, balki shu manzilda yashovchi odamlar ma‘nosida (ko‘chma ma‘noda) qo‘llangan. Ma‘no qishloq bilan unda yashovchilar o‘rtasidagi bogliqlik, munosabat asosida kelib chiqqan. [O‘zbek tili praktikumi, 2005: 47] Yoki: *Charm kamzuldan hamma qo‘rqadi* va h.k.

Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga qism bilan butun munosabati asosida ko‘chirilishiga sinekdoxa usulida ko‘chirilish deyiladi. Masalan: *Tirnoqqa zor bo‘ldi*. Bu gapda tirnoq so‘zi (qismning nomi) “farzand” ma‘nosida (butunning nomi) kelgan. *Besh qo‘l barobar emas*. Bu gapda qo‘l (butunning nomi) beshta barmoq (qismning nomi) ma‘nosida kelgan. [O‘zbek tili praktikumi, 2005: 50]

O‘xshatish orqali so‘zlarda ifodalangan ikki yoki undan ortiq narsa va hodisa, xususiyatlar o‘rtasida mavjud bo‘lgan o‘xshashlik, sifat va belgidagi umumiylik qiyoslanadi, o‘zaro solishtiriladi, tasvirlanayotgan narsa-hodisaning ayrim xususiyati yorqin, chuqurroq va ta‘sirliroq ochib beriladi. Sodda tarzda aytadigan bo‘lsak narsa va hodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to‘laroq, aniqroq, bo‘rttiribroq ko‘rsatib berish o‘xshatish deyiladi. O‘xshatish eng qadimiy va ko‘p qo‘llanadigan tasviriy vositalardandir. [Qo‘ng‘urov, Begmatov, Tojiyev, 1992: 89] O‘xshatishlarning o‘ziga xos fazilati shundaki, ular ko‘zda tutilgan har qanday fikrning aniqlashishida, shu obrazni to‘liq tasavvur etishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida boshqa tillarda bo‘lgani kabi o‘xshatishlar to‘rt unsuridan tarkib topadi va ularni o‘xshatish

subyekt, o'xshatish etaloni, o'xshatish asosi va o'xshatishning shakliy ko'rsatkichi deb nomlanadi [Mahmudov, O'TA, 2011-yil 3-son: 98] M.Mukarramov o'xshatishlarni yuqorida keltirilgan to'rt unurning qay darajada ishtirok etishi belgisiga qarab ikki guruhga ajratadi:

1. Grammatik belgisi o'xshatishlar. Bunda obyekt, obraz va belgilar grammatik ko'rsatkichi bilan mavjud bo'ladi. To'rt belgidan birontasi ham tushib qolmaydi: *O'choqdan chiqqan zangori tutun osmonga o'rlab, tevarak-atrofga ko'rpadek yoyilar edi. (G'.G'ulom)*

2. Logik o'xshatishlar. Bunda grammatik belgi bo'lmaydi: *Sizning poyingizda gardman, to'zonman. (A.Oripov)* O'xshatishlarning slenglarga o'xshash nuqtasi aynan logik o'xshatishlarda kuzatiladi. Jumladan, *qovun, g'isht, tapochka* kabi slenglar. Grammatik belgisiz qo'llangan o'xshatishlarga o'xshab ketadi. Bunday holatlarda ularni qanday farqlaymiz degan savol tug'ilishi tabiiy, chunki boshqa slenglarda shunga o'xshash holatni ko'rish mumkin. Masalan, yuqorida misol qilib keltirilgan, *shkaf, turshak, g'ijim* kabi slenglar bir qarashda so'zning ko'chma ma'noda qo'llanishidan boshqa narsa emasday ko'rinadi, ammo ma'no ko'chish hodisalariga xos individuallik xususiyati bularning shunchaki ko'chma ma'no bo'la olmasligini ko'rsatadi. Har bir so'zlovchi fikrini xoh og'zaki, xoh yozma tarzda bo'lsin, bayon qilar ekan, undagi fikr obyektini, yoki umuman u yoki bu fikrni nimagadir o'xshatib yoxud, qaysidir tushunchani boshqasining vastiasida ifodalab tasvirlash uning o'z xohishi. So'zlovchi o'z qarashlari va dunyoqarashidan kelib chiqib, nimanidir boshqa narsaga o'xshatishi mumkin. Ya'ni bunda har bir ma'no ko'chish yoki o'xshatishni so'zlovchining o'zi yaratadi va u tinglovchi tomonidan hech qanday qiyinchiliksiz tushuniladi. Slenglarda bu holat biroz boshqacha. Sleng har bir so'zlovchi tomonidan individual yaratilmaydi, guruh doirasida bo'lmagan odamlarning tushunishi qiyin, ular nutqqa tayyor holda olib kiriladi.

Yuqoridagi xususiyatlarni umumlashtirgan holatda tilimizdagi slenglar va ularga yondosh boshqa hodisalarning o'ziga xos farqli tomonlarini quyidagicha ajratish mumkin:

Birinchidan, sleng va metaforalar tilga rang-baranglik, o'ziga xos jilo va kreativlik qo'shish uchun ishlatiladigan lingvistik vositalar bo'lsa-da, ammo ular qo'llanish maqsadi jihatidan qat'iy farqlanadi. So'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash nutqqa obrazlilik va ixchamlilik uchun ishlatilsa, slenglarni qo'llashdan aosiy maqsad guruhdan tashqaridagilarning tushunishlariga yo'l qo'ymaslik, fikr ifodasini "yashirish" dir.

Ikkinchidan, sleng norasmiy leksika birligi. Ko'chma ma'noli so'zlar yoxud o'xshatishlarda uslubiy chegara biroz boshqacha. Ular so'zlashuv nutqida keng ishlatilaversa ham, ko'proq badiiy uslubga xos hisoblanadi.

Uchinchidan, sleng, odatda bir so'z yoki so'z birikmasi shaklida, ba'zan asl shaklidan o'zgartirilgan yoki qisqartirilgan yoki muayyan kontekstda yangi ma'no kasb etgan so'z yoki iboralardan iborat bo'ladi. Ko'p hollarda ular boshqa tillardan



o'zlashtiriladi. Metafora, metonimiya yoxud o'xshatishlar ham bir so'z shaklida ham, so'z birikmasi shaklida ham bo'lishi mumkin, ammo ular boshqa tillardan o'zlashtirilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, sleng ham, ko'chma ma'noda qo'llangan so'z ham tilga o'ziga xos ekspressivlik, o'ziga xoslik baxsh etadi. Sleng tushunchasining ko'lamini belgilashda ularning o'ziga xos umumiy va xususiy tomonlarini chuqur tahlil qilgan holda chegara qo'yish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begmatov E., Boboyeva A., Asomiddinova M., Umurqulov B., O'zbek nutq madaniyati ocherklari. -Toshkent, Fan, 1988. – B.80.
2. Mahmudov N. O'xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli. O'TA, 2011-yil 3-son.
3. Partridge E. Slang Today and Yesterday. London: Routledge and Kegan Paul, 1979. – P.3.
4. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T., 1992. – B.89.
5. O'zbek tili praktikumi. I qism. Toshkent, 2005. – B.45-50.